



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


2020- yilning yanvar-dekabr oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,4 % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 11 320,0 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 70,9 % i yoki 8 031,5 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 29,1 % yoki 3 288,5 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 1,2 % punktga ko'payib, 12,2 % ni yoki 1 378,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 9 941,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 87,8 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar




**Markazlashgan moliyalashtirish
manbalari hisobidan
investitsiyalar tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos davriga
nisbatan, % da**



**Markazlashmagan moliyalashtirish
manbalari hisobidan
investitsiyalar tarkibi, % da**

**O'tgan yilning mos davriga
nisbatan, % da**



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1902,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,8 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,2 % i yoki 1 385,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 172,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 % punktga kamayib, 19,2 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 2748,8 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 % punktga ko'paydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 575,0 mlrd. so'm (5,1 % va 2,9 % punktiga ko'paydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1732,6 mlrd. so'm (15,3 % va 1,7 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti 711,2 mlrd. so'm (6,3 % va 1,7 % punktga kamaygan), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 91,9 mlrd. so'm (0,8 %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.


Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'larida kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta o'sdi. Bunday yuqori o'sishga Namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylar, Mashina va uskunlardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarish va ko'pxonadonli uy-joylar qurilishi uchun va boshqa yirik investitsiya loyihalari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,5 % ni tashkil etib, O'zbekiston hamda Beshariq tumanlarida sement ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari shuningdek, gipsakarton va metal profillar ishlab chiqarishni tashkil etish, asbob-uskuna va dastgohlar o'rnatish, Armatura ishlab chiqarish zavodi tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % d)				
		Respublika byudjeti	Korxon va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
Farg'ona viloyati:	11 320,0	6,3	16,5	12,2	39,6	0,8
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona sh.	2 467,3	10,3	29,6	15,1	36,2	0,01
Qo'qon sh.	845,4	5,5	10,7	10,1	46,8	0,0
Quvasoy sh.	1 036,9	0,8	18,5	9,8	60,2	0,0
Marg'ilon sh.	446,0	3,3	16,5	15,1	17,6	0,0
<i>Tumanlar:</i>						
Oltiariq	501,9	4,3	11,2	11,4	17,2	17,6
Qo'shtepa	480,5	3,4	17,4	7,5	69,7	0,0
Bag'dod	161,3	10,7	18,3	18,8	31,4	0,0
Buvayda	168,0	5,9	13,2	32,1	6,0	0,0
Beshariq	1 117,4	1,6	2,0	4,8	61,3	0,1
Quva	260,6	1,9	5,7	46,7	17,1	0,0
Uchko'prik	520,8	3,2	34,2	4,1	19,9	0,0
Rishton	172,5	10,2	23,5	13,0	14,1	0,0
So'x	94,7	61,6	16,7	14,6	4,4	0,0
Toshloq	335,5	5,8	6,1	15,0	30,7	0,0
O'zbekiston	1 458,4	1,4	7,3	5,0	51,8	0,05
Farg'ona t	279,8	14,8	23,9	3,3	18,0	0,0
Dang'ara	438,4	3,8	8,3	22,0	20,1	0,0
Furqat	321,1	4,9	22,1	28,6	32,7	0,5
Yozyovon	213,5	42,9	9,6	13,2	20,2	0,0

**2020- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar
bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**



o'sish

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

Farg'ona viloyatidagi ulushi

**Buvayda
tumani**


85,7 %



168,0



1,5 %



*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



9,9 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*



1117,4

o'sish

108,6 %



Beshariq tumani

o'sish

84,2 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

260,6




Farg'ona viloyatidagi ulushi

2,3 %



Quva tumani

*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



4,6 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*



520,8

o'sish

108,7 %



**Uchko'prik
tumani**

o'sish

103,9 %



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

172,5




Farg'ona viloyatidagi ulushi

1,5 %



Rishton tumani

*Farg'ona viloyatidagi
ulushi*



0,8 %

*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*



94,7

o'sish

152,0 %



So'x tumani

o'sish

153,4 %



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

335,5



Farg'ona viloyatidagi ulushi

3,0 %




**Toshloq
tumani**

2020- yil
yanvar-dekabr

Farg'ona viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar

7

Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



o'sish

157,1 %



O'zbekiston
tumani

Far'ona
tumani

o'sish


100,4 %



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



o'sish

120,4 %



Dang'ara
tumani

Furqat
tumani

o'sish


139,8 %




investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



Farg'ona viloyatidagi
ulushi



investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm




o'sish

111,7 %



Yozyovon
tumani

**2020- yil yanvar-dekabr oylarida
investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da**




SHahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 170,5 % ga o'sib, Qo'shtepa tumanida kuzatildi. Bu asosan paxta tozalash va qayta ishlashni tashkil etish bilan bog'liq.

Shuningdek, O'zbekiston tumanida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 157,1 % ni tashkil qildi. Bunday natijani «Jakob Pfeiffer Fergana» qo'shma korxonasi tomonida tashkil etilayotgan sement zavodi bilan izohlash mumkin.

Toshloq tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 153,4 % ni tashkil etishi, «Posco International Textile» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan bog'liq.

Viloyatda investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulushga (21,8 %) ega bo'lgan Farg'ona shahri hamda Quvasoy shaharlari (9,2 %) Farg'ona viloyati bo'yicha jami investitsiyalar hajmi o'sish sur'atining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning
texnologik tarkibi. (% da)**



Farg'ona Viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 5 712,1 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 50,5 % ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 4 969,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,9 %) va boshqa xarajatlarga 638,7 mlrd. so'm (5,6 %) o'zlashtirildi.

SHahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Furqat tumanida kuzatildi – 77,4 % yoki 248,4 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qo'shtepa tumanida kuzatilib, 32,9 % ni yoki 158,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va Uchko'prik tumanida mashina, uskunalari va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 82,0 % yoki 427,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi % da)

Yangi qurilish - 47,1 %

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya - 29,6 %



Boshqa yo'nalishlar - 23,3 %

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5 326,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 47,1 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 3 353,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 29,6 % ini tashkil etdi. Qolgan 23,3 %, ya'ni 2 640,0 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Shahar va tumanlar kesimida Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Jami hajmdagi ulushi %

		Qurilish montaj ishlari	Mashina, uskuna, inventarlar	Boshqa xarajatlar
	Farg'ona viloyati	43,9	50,5	5,6
	shaharlar:			
	Farg'ona	40,3	47,1	12,7
	Qo'qon	50,0	44,3	5,7
	Quvasoy	25,5	72,2	2,4

	Marg'ilon	44,3	54,0	1,7
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	40,4	55,5	4,1
	Qo'shtepa	32,9	64,4	2,7
	Bag'dod	48,4	31,8	19,8
	Buvayda	38,8	57,5	3,7
	Beshariq	27,5	71,8	0,7
	Quva	56,5	40,9	2,6
	Uchko'prik	17,1	82,0	0,9
	Rishton	53,0	45,8	1,2
	So'x	77,2	13,4	9,4
	Toshloq	43,2	46,0	10,8
	O'zbekiston	70,9	23,5	5,6
	Farg'ona	36,7	60,7	2,5
	Dang'ara	49,5	50,2	0,3
	Furqat	77,4	19,9	2,8
	Yozyovon	62,0	34,4	3,6


Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 5239,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 46,3 % i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish - 2849,3 mlrd. so'm (25,2 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish - 391,2 mlrd. so'm (3,5 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish - 865,5 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 7,6 %).

Tog'-kon sanoatida jami 172,1 mlrd. so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 1,5 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 76,7 % i yoki 131,9 mlrd. so'mi ko'mir va ko'mirni qazib olish sohasiga tegishlidir.



*Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar,
mlrd. so'm*



2020- yil yanvar-dekabr oylarida 4479,5 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 39,6 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 2235,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 2243,8 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



	Jami	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqa investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar
				mlrd. so'm
Farg'ona viloyati	4479,5	2172,0	575,0	1732,5
Farg'ona sh.	892,5	221,4	534,6	136,5
Qo'qon sh.	395,3	230,4	0,0	164,9
Quvasoy sh.	624,4	3,0	16,8	604,6
Marg'ilon sh.	78,3	11,4	0,0	66,9
Oltiariq t.	86,2	12,6	1,1	72,5
Qo'shtepa t.	335,2	12,1	9,8	313,3
Bag'dod t.	50,6	10,4	3,5	36,7
Buvayda t.	10	0,0	0,2	9,8
Beshariq t.	684,5	676,6	2,8	5,1
Quva t.	44,7	26,1	0,1	18,5
Uchko'prik t.	103,7	4,5	0,6	98,6
Rishton t.	24,4	11,6	0,1	12,7
So'x t.	4,1	1,1	0,6	2,4
Toshloq t.	103,1	31,3	0,0	71,8
O'zbekiston t.	755,6	755,6	0,0	0,0
Farg'ona t.	50,5	28,2	4,4	17,9
Dang'ara t.	88,2	25,0	0,1	63,1
Furqat t.	105	100,6	0,2	4,2
Yozyovon t.	43,2	10,1	0,1	33,0

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 3904,6 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 575,0 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da





Viloyat bo'yicha 90,1 km suv tarmog'i, 7,7 km gaz tarmog'i va 6002 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan maktablar ishga tushirildi.

Suv tarmog'i qurilishi bo'yicha 6106,2 mln. so'm, gaz tarmog'i qurilishi bo'yicha 226,2 mln. so'm, maktablar qurilishi bo'yicha 133,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**
249-87-26